

## Taassurot

# Yangi jadidlardan bo'lish uchun nima qilish kerak?

Xalqimiz orasida "Mard bir kunda o'ladi, qo'rqoq har kuni" degan gap bor. Bizga hayot bir marta beriladi. Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" romanida ilgari surilgan bosh g'oya – millatni uyg'otish, ilmning qadri, millat hayot darajasini yaxshilashda ilmi yoshlarning o'rni naqadar muhim ekanini ta'sirchan ifodalab berishdan iborat.

"Qo'rqma" asari asosida ayni nomdagi badiiy-hujjatli film YouTube'da premyera qilindi. Film "Mutilaa" loyihasining kitob-kino yo'nalishida suratga olingan. Film Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalariga ham namoyish etildi.

O'tgan asr voqealari fonida yaqin tariximizda millat ravnaqi uchun kurashda ayanchli mag'lubiyatga uchraganimiz yaqqol namoyon bo'ladi. Qozoq, qirg'iz, o'zbek, tojik, turkman, qoraqalpoq, bari bir onaning egiz farzandlari kabi, qonimiz va suyagimiz muqaddas Turkiston loyidan qorilgan. Asarda turkiy millatni uyg'otish, uning kelajagini barpo qilish maqsadida o'zbek talabalarini xorijga yuborish uchun turli dorilfununlar, dargohlar ochilgani keltirib o'tiladi. Aslida bu qaror, bu ilm dargohlari talabalar uchun kafan bo'lishi, ilmning ular uchun qabr bo'lishini kim o'yabdi deysiz? Quvonarlisi, o'sha davrda og'ir mehnati bilan hayot uchun kurash olib borayotgan bo'lsa-da, talabalarni o'qitish uchun gadoylik qilib bozorga chiqishga ham tayyor insonlar, o'ziniki bo'lmagan, ammo millat farzandi bo'lgan yoshlarni o'qitish uchun borini berishga tayyor millatdoshlarimiz bor edi. Millat kelajagi uchun, hatto odamlarning oyog'iga yiqilishga tayyor yurtparvarlarning jonkuyarligi tahsinga sazovor.

Afsuski, yurt kelajagi, millat ravnaqi, odamlar ongida ilm-ma'rifat, ma'naviyat urug'ini sochish uchun qilingan ezgu amallar yana havoga uchdi. Bashariyat shu kunlarda olg'a qadam qo'yib, o'qish uchun bo'y cho'zayotgan bir pallada biz o'z tomirimizga o'zimiz bolta urdik. Dunyoning allaqaysi burchaklaridan ilm olish uchun kelgan talabalar soni yuzlar, minglarni tashkil etsa, bizniki hatto yuztaga ham yetmadi. Solishtirish uchun, Turkistondan o'qish uchun yetmish nafar talaba xorijga jo'natilgan bo'lsa, qo'shni Afg'onistondan besh yuz nafar talaba chetga yuboriladi. Dunyo talabalar o'z

yurtlarini yuksaltirish uchun ilm olib, yurt farovonligi, insonlarning dunyoqarashini kengaytirish yo'lida million-milion pul sarflab Germaniyaga kelishsa, biznikilar o'z yurtiga yuksalish olib kirishga harakat qilayotgan farzandlarining ustiga tuproq tortishdi. Bir necha kun oldin ulug' jadidlar qoniga bo'yalgan zamin yana shunday mard, jasur, fidokor o'g'il-qizlar qoni bilan yuvildi. Biz ularni emas, afsuski, o'z millatimiz, ruhiyatimizni va kelajagimizni o'ldirdik. Aslida barcha yurt farzandlari uchun ulug' sharaf bo'lgan bu mardlik bizning ham qo'limizdan keladi. Bizga ishongan yuzlab ota-onalar, ustozlar ishonchini oqlash har birimizning vazifamiz.

Filmda ota va qiz suhbatlari eng ta'sirli nuqtalardan biri bo'lib, Vatanni qutqarishga ahd qilgan qiz hali turmushga chiqmasdan, hayot neligini bilmasdan bu dunyodan ko'z yumadi. Aniqrog'i, uni otib o'ldirishadi. Bu juda ayanchli qismat, yurt uchun o'z jonini berish demakdir. Bugun har bir inson o'ziga berishi shart bo'lgan savollardan biri: biz o'z vatanimiz uchun nima qildik? Astoydil o'qish, ilmda yangi dovonlar ochishni eplay oloyapmizmi? O'rganayotganlarimiz xalq hayotini yaxshilash uchunmi yoki o'z turmushimizni yengillashtirish uchun? Bu savollarga jo'yali javoblar topilmas, maqsadlarimiz kattalashmas ekan, mayda millat sifatida yashashda davom etaveramiz.

Filmda kelgusi hayotimiz, ya'ni 2123-yil haqida ham gap ketadi. Qahramon Germaniyadagi 70 nafar talabani qidiradi, ammo zamonaviy yoshlarda XX asrda Turkistondan ilm izlab kelgan talabalarining g'oyalari, maqsadlarini, maslaklarini topa olmaydi. Asar qahramoni talabalardan nima uchun o'qiyotganini so'raydi. Ular "o'qarish", qora mehnatdan qutulish, yaxshi turmush o'rtoq topish uchun, boringki, mayda turmush muammolarida yechim bo'lsin deya o'qiyotganini aytadi. Ular Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridagi ayrim maqsadsiz qushlarga o'xshaydi, go'yo-

ki faqat buguni uchun yashaydi. Bunday insonlar asardagi qushlar kabi yarim yo'lida halok bo'ladi yoki ortiga qaytib ketadi. Xo'sh, maqsadsiz qushlar kabi bo'lmaslik, yarim yo'lida adashmaslik uchun nima qilish lozim? Shu savol shuurimizda aylanar ekan, bugunning talabalarini so'roqqa tutamiz:

## Yangi jadidlardan bo'lish uchun nima qilish kerak?

### Jasmina Iskandarova:

◆ Fikrimcha, bizga jadidlar emas inson zoti kerak. Avvalo o'zimizni o'zgartirishimiz, qilmishlarimizni bo'ynimizga olishimiz, tarixda qilgan xatolarimizni tushunishimiz kerak. Avval odam bo'lishimiz lozim, undan so'ng biz jadid ham, olim ham, millatni uyg'otguvchi ham bo'la olamiz. Jadid bo'lishdan oldin o'z qo'limiz bilan yo'q qilgan jadidlarimizning haqiqatlari, ular qoldirgan g'oya, ilm-ma'rifatimizni tiklashimiz kerak. Chunki chirigan daraxt ildizlaridan hech qachon yangi shoxlar o'sib chiqmaydi.

### Dilfuza Olimboyeva:

◆ Menimcha, buning uchun avvalo ayollar ilmi bo'lishlari kerak. Hozirdan diniy va dunyoviy bilimlarni puxta o'rganib borishimiz zarur. Kelajakda farzandli bo'lganimizdan so'ng ularga tarbiya beruvchi ona, qolaversa, millat bolalarini savodli qiluvchi ustoz martabasiga erishamiz.

### Nigora Muslimbekova:

◆ Ilmning qadriga yetilmasa, oqibati shunday bo'ladi. Hoy odamlar, ko'zlarimizni oching, ilm olishdan charchamang va dangasalik qilmang, xuddi mana shu 70 nafar talaba kabi jasur, qo'rqmas va adolatparvar bo'laylik... Anbar Otinning shunday satrlari bor:

*Jahon ravshan ziyoyi ilmdandur,*

*Ko'ngil sofi so'fiy ilmdandir.*

Yangi jadidlar bo'lish uchun o'qib, izlanib, mana shu yosh talabalar kabi ilmga chanqoq va qo'rqmas bo'lishimiz kerak va doimo oldinga harakat qilish lozim.

### Sabohat Rahmatullayeva:

◆ Bizning aniq maqsadimiz faqat maishiy muammolar, qornimizni to'ydirish emas, balki millatimiz yuksalishi uchun xizmat qilishimiz bo'lmog'i lozim. Biz uchun qurbon bo'lgan jadid ajdodlarimiz va ularning to'kilgan qoni uchun kurashmog'imiz kerak.

Dildora IBROHIMOVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

## Ta'kid

# Tanqidiy fikrlash qanday rivojlantiriladi?

Tanqidiy fikrlash qaror qabul qilish jarayonida har qanday kamchilikni topish va bartaraf etishga yordam beradi. Kishi nima bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Axborotni tahlil qilish, baholash va tushunish qobiliyati muhimdir. Tanqidiy fikrlash hayotning turli jabhalarida muhim ahamiyatga ega.

Tanqidiy fikrlash, axborotga boy bugungi kunda alohida ahamiyatga ega bo'lib, odamlar doimo turli manbalardan, ham ishonchli, ham ishonchsiz ma'lumotlar bilan bombardimon qilinmoqda. Bu ko'nikma ushbu ma'lumotlarni elakdan o'tkazish, dalillar va sabablarga asoslanib to'g'ri qarorlar qabul qilish, biror muammoni hal etishda qo'l keladi. Murakkab vaziyatlarda ham muammo-ning kelib chiqishi sababini va yaxshiroq yechimlarni topishga to'g'ri keladi. Bu qobiliyat har qanday soha, ayniqsa ilm-fan, muhandislik va tadbirkorlikda muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, tanqidiy fikrlash odamlarga boshqalar bilan

ishlash va o'z nuqtayi nazarini samarali tarzda yetkazish va muhokamalarda ishtirok etish, g'oyalarni yaxshiroq yetkazish imkonini beradi. Shu bois, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullarini bilib olish maqsadga muvofiqdir.

**Ko'proq kitob o'qing.** Tanqidiy fikrlash qobiliyatini bolalikdan rivojlantirish umrbod foyda keltiradi. Ayniqsa, tez o'qish tanqidiy fikrlash qobiliyatini yaxshilash uchun qimmatli vosita. Tez va samarali o'qishni o'rganish orqali bolalar qisqa vaqt ichida ko'proq ma'lumotni o'zlashtirishi, asosli qarorlar qabul qilishi va xulosa chiqarishlari mumkin.

**Hamma narsaga savol nazari bilan qarang.** Eshitganingiz yoki o'qiganingizning faqat bir qismini tabiiy deb qabul qilish va ma'lumotni chuqurroq o'rganish, uni tanqidiy baholash juda muhimdir. Bunda o'zingizga quyidagi savollarni berish lozim: ma'lumot manbasi kim? Ularning maqsadi nima bo'lishi mumkin? Ma'lumotni tasdiqlash uchun qanday dalillar mavjud?

**Ma'lumotlarni tahlil qiling.** Aniq qarorlar qabul qilish va asosli xulosalarga kelish uchun, ayniqsa, murakkab yoki bahsli mavzularda axborot manbalarini qanday topish va baholashni bilish juda muhimdir. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishning yana bir usuli – dalillarni tahlil qilish. Asosiy da'vo, xulosa, qo'llab-quvvatlovchi sabablar yoki dalillarni aniqlang. Bahsni zaiflashtiradigan aqliy hujum yoki hissiyotlarga murojaat qilish kabi mantiqiy xatolarni

qidiring. Muqobil qarashlar va qarshi dalillarni ko'rib chiqing.

Tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishning yana bir muhim usuli bu **o'z-o'zini isloh qilishdir**. Bu noto'g'ri fikrlaringiz, taxminlaringizni baholashdan boshlanadi. Muntazam o'z-o'zini isloh qilish obyektiv va analitik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa, umuman olganda, tanqidiy fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi.

Dunyo doimiy o'zgarishlarni boshdan kechirar ekan, vaziyatlarni tanqidiy tahlil qilish va shunga mos ravishda moslashish ko'nikmalariga ega bo'lish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fikrlash qobiliyatimizni yaxshilash orqali o'zimizga ishonchimiz ortib, bilimdon va har sohada muvaffaqiyatga erisha oladigan kuchga ega bo'lamiz.

Mehribonu TOKUMBETOVA,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
To'rtko'l fakulteti o'qituvchisi